NAMANGAN VILOYATI CHORTOQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 4-oktabr | 398-6-88-Q/24 | Chortoq tuman hokimligi

Chortoq tumanida joylashgan jome masjidlari hududlarida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlarda juma namozi vaqtlarida harakatni vaqtinchalik cheklashga ruxsat berish to‘g‘risida

Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining 2024-yil 10-iyuldagi “Chortoq tumanida joylashgan jome masjidlari hududlarida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlarda juma namozi vaqtlarida harakatni vaqtinchalik cheklashga ruxsat berish to‘g‘risida”gi 24/6-2089-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining 2024-yil 10-iyuldagi 24/6-2089-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chortoq tumanida joylashgan jome masjidlari hududlarida fuqarolar xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlarda juma namozi vaqtlarida harakatni vaqtinchalik cheklashga ruxsat berilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (R.Usubjonov)ga:

- harakat vaqtinchalik cheklangan vaqtda avtotransport vositalarining aylanma harakatlanishini tashkil etish bo‘yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlar rejasi hamda sxemasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- tasdiqlangan sxema bo‘yicha atotransport vositalarining harakatlanishini tashkil etish;

- transport vositalari harakatlanish davrida harakat xavfsizligi, fuqarolar hamda yong‘in xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Ummatov) va “Chortoq haqiqati” gazetasi (B.Tillaboyev)ga masjidlar oldida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlar hududlarida juma namozi vaqtlarida harakatning vaqtinchalik cheklanishi to‘g‘risida gazeta va tuman hokimligi rasmiy veb sayti orqali aholiga keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Rustamov hamda tuman IIB boshlig‘i R.Usubjonov zimmalariga yuklansin.

Tuman hokimi **I.Sattarov**